

PSIXOTERAPIYA VA PSIXOKORREKSIYA – RIVOJLANISHIDA NUQSONI
BO'LGAN BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLAB QOLISH YOKI QAYTA TIKLASH
JARYONIDA PSIXOLOGIK TA'SIR SHAKLI SIFATIDA.

Mirbabayeva Nodiraxon Soliyevna
Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixoterapiya va psixokorreksiya insonlarning salomatligini saqlash maqsadida o'zaro bir-biri bilan bog'langan psixologik ta'sir etish shakllari ekanligining asosiy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Psixoterapiya, psixokorreksiya, psixogen sabablar, defektolog, logoped, endogen, ekzogen, psixologik ta'sir.

Psixoterapiya - shifokor tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning turli xil buzilishlarini davolashda qo'llaniladigan tibbiy va psixologik vositalar tizimi; psixikaga kasallik hodisalarini bartaraf etish yoki oldini olish, o'ziga-o'zining nuqsoniga nisbatan to'g'ri munosabatni rivojlantirish maqsadida kompleks davolovchi- psixologik – pedagogik ta'sir etishdir.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixoterapiya davolovchi- psixologik – pedagogik, korrektsion tadbirlar, davolashning, ta'lim va tarbiyaning barcha jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Psixoterapiya o'tkazish uchun mutaxassis bola kasalligi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari (yuqori darajadagi ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokorga, tarbiyachi, pedagogga bog'lanib qolishi) psixoterapiyani samarali qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida erta ikkilamchi reaktiv xarakterdagi hissiy buzilishlar kuzatilib, ular ishonchsizlik, nutqiy muloqotdan qo'rqish, kayfiyatning tushkunligi, haddan tashqari tez hafa bo'lish, havfsirash, qo'zg'aluvchanlikda namoyon bo'ladi. Bu hissiy buzilishlar bolaning asab tizimini yanada zaiflashtiradi va turli nevroitik reaksiyalarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi (duduqlanish, enurez, qo'rquv, qaltirash va hakoza).

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yinli psixoterapiya keng qo'llaniladi. O'yin jarayonida bola o'zini to'g'ri tutishga o'rgatiladi. Rivojlanishida turli xil buzilishlarga ega bolalar va o'smirlar bilan ishlashda turli xil psixoterapevtik metodlar keng qo'llaniladi: guruhli, yakka, oilaviy, ratsional va suggestiv.

Psixokorreksiya - ruhiy sog'lom odamning psixologiyasi yoki xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni tuzatish uchun amaliyotchi psixolog tomonidan qo'llaniladigan psixologik usullar to'plami. Psixokorreksiyaning boshlang'ich bosqichi maxsus tanlangan psixologik metodikalardan foydalanib psixik jarayonlarni turli tomonlarini, xususiyatlarini, shaxsiy sifatlarini va faoliyat turlarini kompleks tashxis qilish hisoblanadi.

Psixokorreksion kompleks o'zaro bog'langan bir nechta bo'limlardan tashkil topgan. Har bir bo'lim turli xil vazifalarni amalga oshiradi va maxsus tashkil etilgan metodlar va usullardan tashkil topgan:

Birinchi bo'lim - tashxislovchi. Maqsadalar:

- psixologik havf – xatar omillarini tashxislash;
- har bir oilada psixologik havf –xatar omillarini shakllantirish;
- psixologik korrektsiyaning umumiy dasturini shakllantirish.

Ikkinchi bo'lim - amalga oshiruvchi. Maqsadalar:

- yengillashtiruvchi va bo'shashtiruvchi samaraga erishish;
- ota onalarda bolaning hatti harakatlarida va oilaviy munosabatlarda ijobiy o'zgarishlarga erishish imkoniyatiga ishonchni orttirish;
- psixologik korrektsiya maqsadlari, talablarini qayta ishlash;
- faol psixokorreksion ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratish.

Uchinchi bo'lim - korrektsion. Maqsadlar:

- bolani rivojlanish jarayonini faollashtirish;
- inqirozli davrning negativ fazasidan ijobiy fazasiga o'tishga erishish;
- o'yin faoliyatini jadallashtirish;
- o'z "Men" ini ochishga erishish;
- oiladagi inqirozni bartaraf etish;
- tarbiya motivlarini anglash sohasini kengaytirish;
- yetakchi motivlar o'rtasidagi qarama qarshiliklarni bartaraf etish;
- ota onalarning pozitsiyalarini o'zgartirish, ota onalarni bola bilan muloqot qilishning yangi shakllariga o'rgatish, oilaviy tarbiyaning psixologiyasi haqidagi bilimlarini kengaytirish.

To'rtinchi bo'lim - samaradorlikni baholash. Maqsadlar:

- korrektsiya jarayonida psixologik havf xatar omillarini o'zgarishini baholash;
- korrektsiya samarasini baholash.

Psixoterapiya – defektologiyada, xususan, logopediyada duduqlanishni bartaraf etishda rivojlangan. Ammo, keyingi yillarda surdopedagogika va oligofrenopedagogikada ham psixoterapevtik korrektsiya bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi.

Psixoterapiyani korrektsion pedagogikada qo'llash imkoniyatlari so'nggi yillarda korrektsiyaning shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy – psixologik qonunuiyatlarini qo'llashga asoslangan psixologik metodlarini jadal rivojlanishi bilan bog'liq ravishda psixoterapiyaning notibbiy modellari, xususan, psixologik modeli paydo bo'ldi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan psixokorreksion ishlar ularni maxsus maktabga kelgan vaqtdan boshlaboq boshlanishi va ikkita asosiy vazifani bajarishi kerak- ulardagi maxsus yetilmagan funktsiyalarni bartaraf etish va individual va shaxslararo muammolarini barataraf etishga xizmat qilishi kerak. Demak, kichik maktab yoshidagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan o'yinli faoliyatni qo'llash ularda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga, sinfdoshlari va o'qituvchilar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallashga, bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini ortishiga xizmat qiladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga mo'ljallangan maxsus maktab internatlardagi o'rta bo'g'in bolalari bilan psixokorreksion ishlarda korrektsiyaning ijtimoiy psixologik trening ko'rinishidagi individual va guruhli metodlari qo'llaniladi, ular o'quvchilarda

o'zlarini qadrlash, boshqalar shaxsini hurmat qilish, o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Funksional eshitish buzilishining barcha turlaridagi kasalliklar simptomatikasi va rivojlanish sabablarini xisobga olgan xolda ularni turt guruhga ajratish mumkin :

1) psixogen sabablarga kura eshituv buzilishi: isterik karlik , isterik kar soqovlik , surdomutuzim .

2) nopsixogen eshitish buzilishlari: funksional nerv –psixik buzilishlarida somatik va nevrologik kasalliklarda idiopatik funksional gipo va giper akuziyada.

3) taqlidiy eshituv buzilishlari: bolalardagi taqlidiy karlik, o'zini karlikka solish, shaxslarda xavotirli soxta karlik.

4) endogen psixik kasalliklar va psixik rivojlanmaganlikdagi eshitish buzilishlari.

Funksional va organik eshitish buzilishlarini differentsial tadqiq qilishda audiometrik ma'lumotlardan tashqari bemorning sub'yektiv xolatini shaxsiy ta'sirlanish xususiyatlarini xisobga olish, iloji boricha psixologik tekshirish va psixiatr ko'rigidan o'tkazish zarur. Bemorlarda davolovchi pedagogik ta'sir maqsadida psixoterapevtik davolashni o'tkazishda bolalarning individual xususiyatlarini, uning ruhiy rivojlanishini sustlashganini xisobga olish kerak.

Davolovchi pedagogik tadbirlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bemorlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- nutqiy faollikni rivojlantirish, shuningdek to'g'ri gapirish muloqot qobiliyatini rivojlantirish;

- bemorlarda eshitishni rivojlantirishga faol munosabatni tarbiyalash, ularni sodir bo'layotgan yaxshilanishga nisbatan xursand bo'lishga o'rgatish;

- bemorlarda o'zlarining to'la qonli emasligi haqidagi fikrlarni yo'qotish.

Psixoterapevtik - psixokorreksion ishlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar salomatligini saqlash yoki qayta tiklash jaryonida defektologlar, psixologlar pedagoglar bilan birgalikda olib borilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Solieva, Mirbabayeva Nodira, and Abdusalomova Feruza Shokirjan Daughter. "PROTECTION OF THE RIGHTS OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN OUR REPUBLIC." Science Promotion 1.1 (2023): 51-56.

2. Soliyeva, Mirboboyeva Nodiraxon. "Thoughts about The Stages Of Development Of Oligophrenopedagogy And Mental Retardation." Confrencea 7.7 (2022): 102-105.

3. Mirbabayeva, Nodiraxon, and Sarvinoz Siddiqova Sarvinoz. "AQLI ZAIF BOLANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASNIFI." Current approaches and new research in modern sciences 2.6 (2023): 32-36.

4. Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "ORAL SPEECH AND ITS DEVELOPMENT FEATURES." Open Access Repository 9.II (2023): 206-209.

5. Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminakhan. "DIFFERENTIATION OF SENTENCES IN SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN THE CONTENT

AND ORDER OF THE WORK CARRIED OUT ON." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 1071-1075.

6. Islamjan, Haydarov. "FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF HEARING-IMPAIRED STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 536-540.

7. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the corrective-pedagogical o." Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research 1963 (1958).

8. Zhurayevich, Yuldashev Sadirboy. "TECHNOLOGIES FOR ELIMINATING SHORTCOMINGS IN ORAL SPEECH IN LESSONS OF VISUAL ACTIVITY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 378-382.

9. Jorayevich, Yuldashev Sodirboy, and Mukhammadjonov Shahruxh Shukhratovich. "TECHNOLOGIES OF DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH IN FINE ARTS LESSONS." Academia Science Repository 4.5 (2023): 345-348.

10. Jurayevich, Yuldashev Sodirboy. "PEDAGOGICAL PROCESSES CARRIED OUT WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS OF PRESCHOOL AGE." Science Promotion 1.1 (2023): 75-81.

11. Muhtorova, M. B., and Islomova Zahrohon. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 130-137.

12. Muxtorova, M. B., and Toshkentbayeva Nafosat. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING QONUNY KAFOLATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 124-129.

13. Muhtorova, Maftuna, and Gulmira Avazxonova. "MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING AMALDAGI XOLATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 92-97.

14. Muxtorova, M. B., and Muhammadjonov Shoxrux. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISH ASOSLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 87-91.

15. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING QARASHLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 104-111.

16. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.

17. Islomjon, Haydarov. "ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR HISSIYOTINING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 112-116.

18. Xovodillayev, Murodjon. "LOGOPEDIK MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISHDA O'YINLARNING KORREKSION AHAMIYATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 117-123.
19. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Contents of Logopedic Rhythm Exercises Conducted with Children Who Stutter." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 36-39.
20. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Methodology of Memory Development in the Process of Working on the Passive and Active Vocabulary of Children with Undeveloped Speech." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 40-44.
21. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.
22. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.
23. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.
24. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Babayeva Azizabonu Hamidjonovna, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "TEACHING SPEECH FORMATION TO PRESCHOOL-AGE DYSARTIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 52-55.
25. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF ITS ELIMINATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 48-51.
26. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.
27. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
28. Daughter, Husanova Iroda Ulugbek. "LOGOPEDIC WORK WITH DYSARTHIC CHILDREN." Science Promotion 1.1 (2023): 117-122.
29. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." Science promotion (2023).
30. Muhammadjonova, Dilafruz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." Science promotion (2023).
31. Muhammadjonova, Dilafruz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

32. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

33. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

34. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023

35. Oppakhho'jayev, Son Of Khojikhujaja Azimjon. "Technologies For Developing Inclusive Readiness Of Families Based On A Competent Approach." Asian Journal Of Multidimensional Research Issn: 2278-4853.

36. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixujaja. "Inclusive Education System Progress of the Process." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 199-206.

37. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixujaja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57

38. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixujaja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.